QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.079

ALISHER NAVOIYNIG “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI DAVLAT IDORALARI VA MANSAB-MARTABA NOMLARINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Xo‘janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
dotsent., f.f.f.d (PhD)
shahnozaxon8686@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola “Sab’ai sayyor” dostonidagi davlat idoralari hamda yuqori mansab-martaba nomlarining tarixiy-etimologik tadqiqiga bag’ishlangan. Shuningdek, mazkur terminlarning ma’no kengayishi, ma’no torayishi hodisalari misollar yordamida dalillangan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy, terminologiya, ástána, leksik qatlam, váliy, xiláfat, leksik qatlam, termin.*

LEXICAL UNITS EXPRESSING GOVERNMENT BODIES AND OFFICIAL RANKS IN ALISHER NAVOI'S EPIC POEM "SAB'AI SAYYOR"

Abstract. This article is devoted to the historical and etymological study of the names of government bodies and high official ranks in the epic poem "Sab'ai Sayyor". Furthermore, the phenomena of broadening and narrowing of meaning in these terms are demonstrated and substantiated with specific examples.

Keywords: *socio-political, terminology, ástána, lexical layer, váliy, xiláfat, term.*

Har bir davlat o‘ziga xos tarix, madaniyat, qadriyatlar va boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan betakror ijtimoiy hodisadir. U mamlakat miqyosida hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadi[79]. Mansab-martaba bildiruvchi terminlar o‘ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Mansab-martaba so‘zlarining shakllanish jarayoni umumiy tengsizlik kuchaygan va tabaqalanish yuzaga kelgan davrlarga bog‘lanadi. Mansab-martaba leksikasining shakllanish va taraqqiyot xususiyatlari Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida G.Dyorfer, I.Berezin, B.Grekov, L.Budagov, A.Xanikov, N.Baskakov, B.Bartol’d tadqiqotlarida yoritilgan[80]. XI – XIV asrlar turkiy yozma yodgorliklaridagi mansab-martaba so‘zlarini H.Dadaboyev maxsus tadqiq qilgan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiya leksikaning faol qo‘llanuvchi qatlamlaridan biri

[79] Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2001. –Б. 173-174.
[80] Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 215.

ekanligini, ma’lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy diniy kabi omillar ta’sirida shakllanishi va rivojlanishini ta’kidlaydi[81]. Z.Xolmanova ijtimoiy-siyosiy terminlarni muayyan birlashtiriuvchi ma’nolar asosida ma’lum paradigmalarga guruhlab, semantik maydon asosida tadqiq qilgan[82]. O‘zbek tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy leksika bilan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, H.Dadaboyev, H.Yodgorov, B.Abdushukurov, Z.Xolmanova A.O‘razboyev, O.Mo‘minova, A.Primov, L.Sindirov, R.Maxmudov, Z.Isaqova, Sh.Xo‘janiyazova va h.k.[83]

Har qanday milliy tilning ijtimoiy-siyosiy leksikasi o‘sha xalqning davlatchilik tarixi, ijtimoiy tuzumi va madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Navoiy ijodi, xususan, uning falsafiy-didaktik g‘oyalar va murakkab davlatchilik tizimi tasvirlangan “Sab’ai sayyor” dostoni XV asr ijtimoiy-siyosiy leksikasini o‘rganishda boy lisoniy manba hisoblanadi. Dostonda qo‘llangan davlat idoralari va yuqori mansab-martaba nomlari o‘sha davr ijtimoiy hayoti, boshqaruv tizimi hamda ma’muriy-huquqiy munosabatlarini aks ettiruvchi yaxlit bir terminologik tizimni tashkil etadi. Chunonchi, *dargáh/dargah, ástána, bek/beg, vazir (vuzará), váliy, hákim, sarkár, xiláfat, xája, náib* va h.k.

Ma’lumki, “Sab’ai sayyor” dostonidagi shoh Bahromning maishatga berilishi va idora ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘yishi, mansabdorlarning o‘zboshimchaligi, natijada davlatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘lgan.

Forscha-tojikcha *dargáh* istilohi “eshik” ma’nosini anglatib, “joy” semasini ifodalovchi *gáh* otiga (TjRS, 116) qo‘shilib, “eshik oldi” (O‘TEL, III, 77) tarzida qo‘llangan. Navoiy asarlari tilida: 1) eshik, ostona, bo‘sag‘a; 2) dargoh; hovli, uy, xanodon; 3) saroy, qasr, shoh saroyi, o‘rda; 4) Tangri huzuri, xudo qarshisi ma’nolarida ishlatilgan (ANATIL, I, 454). S.Sda bu leksema to‘qqiz o‘rinda tubandagi semalarda aks etgan:

1) eshik, ostona, bo‘sag‘a: *Atlanïb šah sárï xirám etti,*
Öpüban ***dargah*** *ehtirám etti (447).*

2) dargoh; hovli, uy, xanodon: ***Dargahïγa*** *özümni yetkürsäm,*
Tufraγïγa közümni yetkürsäm (343).

3) saroy, qasr, shoh saroyi, o‘rda: *Šáh Bahrámkim, jahán šahïdur,*
Čarx anïŋ γubár-i ***dargahïdur*** *(343).*

[81] Дадабоев Ҳ. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати /Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 68.

[82] Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 215.

[83] Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с; Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз. дис. … автореф. –Тошкент, 1996. –Б. 26; Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. Филол. фан. д-ри (DSc). … дисс. –Тошкент, 2017. – 259 б; Холманова З. “Бобурнома”нинг лексик тадқиқи. Филол. фан. д-ри (DSc). … дисс. –Тошкент, 2009. – 368 б; Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лекикаси. Филол. фан. д-ри (DSc). … дисс. –Тошкент, 2018. – 251 б; Мўминова О. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таркиби. –Тошкент, 2009. – 128 б; Primov A. Sharafuddin ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari leksikasi. Filol fan. d-ri (DSc). … diss. –Toshkent, 2024. – 231 b; Синдоров Л. “Ҳибатул ҳақойиқ” лексикаси. Филол. фан. б. фалсафа док (PhD). дисс... – Жиззах, 2021. – 282 б; Махмудов Р. Огаҳий тарихий асарларида ўзлашмалар. Филол. фан. д-ри (DSc). … дисс. –Тошкент, 2022. – 309 б; Исоқова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 166 б; Xo’janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filol. fan. b. falsafa dok (PhD). diss... –Toshkent, 2022. – 155 b.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *dargáh* istilohi 1) podshoh arki va saroyi, borgoh; 2) uy-joy, hovli, maskan; 3) xonadon, oila; 4) xizmat faoliyati, sohasi, o‘rni; 5) najot topiladigan, panoh bo‘ladigan joy; 6) sig‘iniladigan muqaddas joy (O‘TIL, I, 772) ma’nolarda qo‘llanmoqda. Ko‘rinib turibdiki, mazkur o‘zlashmaning ma’no doirasi hozir kunga kelib birmuncha kengaygan.

Ko‘k turk xoqonligi harbiy-ma’muriy qurilishida faol iste’molda bo‘lgan *beg* istilohi Amir Temur, Temuriylar va o‘zbek xonlari davlatida “hukmdor, mansabdor, to‘ra, janob” ma’nolarini anglatgan[84]. Qadimgi turkiy tilda “hukmdor, hokim, dohiy, yo‘lboshchi, bek, askar boshligi va viloyat hokimi, xo‘jayin” (DTS, 91), DLTda 1) beg; 2) xotinning eri (III, 169-170), eski o‘zbek adabiy tilda “bek, amaldor” (ANATIL, I, 261) ma’nolarida qo‘llangan. Mazkur istiloh “Qutadg‘u bilig” asarida *begi* shaklida “qahramon” (DTS, 91), Clausonning “An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish” lug‘atida ham shu ma’noda ishlatilgani ko‘zga tashlanadi (325).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *beg/bek* leksemasining ma’no kengayishi yuz berib, quyidagi semalarni ifodalaydi: 1) turkiy xalqlarning ba’zilarida xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs; 2) erkaklar ismining tarkibiy qismi; 3) (I shaxs egalik shaklida) o‘z begi yoki xo‘jayniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatiladigan so‘z (O‘TIL, I, 213). Asar so‘z boyligida *beg/bek* istilohi “saltanatda xizmat qiluvchi yuqori mansabdor harbiylar va arkoni davlatga” nisbatan qo‘llangan:

*Yänä **bek**lär nekïm, kičik-u uluq,*
Barï bašï yalaŋ, saqalï yuluq (382).

“O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida xon va podshoh tomonidan tayinlanadigan viloyat hokimi” (O‘TIL, V, 710) sememasidagi arabcha *váliy* o‘zlashmasi eski o‘zbek adabiy tilida: 1) hokim, viloyat hukmdori; 2) boshliq ma’nolarida ishlatilgan (ANATIL, I, 378). Asar so‘z boyligida faqat “hokim, viloyat hukmdori” semasida aks etgan:

*Birav erdi Taráz üzä **váliy,***
Himmati pastu mansabi áliy (499).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqqan arabcha “xalifalik, o‘rinbosarlik” ma’nosidagi *xiláfat* (ANATIL, III, 395) o‘zlashmasi doston matnida bir o‘rinda qo‘llangan: *Saltanat bahriniŋ durr-i nábï va **xiláfat** ma’daniniŋ la’l-i serábï, áfariniš tájïya javhar-i zátï, zeb ilä zayn, muizzus-saltanat-i vad-dünyá vad-din Sultán Husayn Bahádirxán (321)….*

Qadimgi turkiy tilda “vazir, hukmdorning vakolatli yordamchisi, hukmdor maslahatchisi” (DTS, 633) semasidagi arabcha *vazir* istilohi “podshoh, xon saroyida yuksak lavozimga tayinlandi” ma’nosini anglatuvchi *vazara* fe’lining masdari bo‘lib (ATG,143), tarixan “podsho, xon saroyida yuksak lavozim egasi” (O‘TEL, II, 82), eski o‘zbek adabiy tilida “vazir” (ANATIL, I, 351), hozirgi o‘zbek adabiy tilida: 1) Markaziy Osiyo xonliklarida: hukumat idorasi yoki kengashi boshlig‘i; devonboshi; 2) O‘zbekistonda: boshqaruvning alohida bir sohasiga rahbarlik qiluvchi, mamlakatda muayyan ijroviy tarmoq faoliyatini, jumladan,

[84] Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sahhof, 2021. – B.24.

muayyan vazirliklarni boshqaruvchi shaxslar (ISTQIL, 260) ma’nolarida ishlatilmoqda. Doston matnida “vazir” semasida olti o‘rinda qo‘llangan:

Saldïlar un ičindä zár-u asir,
Kördi nágahki tün kirdi ***vazir*** *(503).*

“Hurmatli, obro‘li kishi; janob, xo‘jayin; mulkdor” (O‘TIL, VI, 60), ma’nosidagi fors-tojikcha *xája* istilohi “sardor, boshliq (nashband avlodlari)”; ega, “xo‘jayin, sohib” (ANATIL, III, 404) doston matnida “ega, xo‘jayin, sohib” ma’nosi qo‘llangan:

Xájakim, *kördi ul γarib ahvál,*
Bildikim, qondï táyïr-ï ïqbál (604).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *náib* o‘zlashmasi “*tar*. O‘rta asrlarda musulmon davlatlarida tobe o‘lka yoki viloyat hokimi, oliy hukmdorning shu yerdagi vakili, o‘rinbosari; *esk.* O‘rinbosar, yordamchi” (O‘TIL, III, 386-387), ARSda *nāib(un)* shaklida (836), o‘zbek tiliga cho‘ziq *ā* unlisini *â* unlisiga, kasrali hamzani *i* unlisiga almashtirib qabul qilingan: *nāib* → *naib (noib)* (O‘TEL, II, 329-330). Navoiy asarlari tilida “o‘rinbosar, noyib” ma’nolarida qayd etilgan (ANATIL, II, 473). Mazkur leksemani quyida keltirilgan bayt yordamida dalillash mumkin:

Bar edi ***náibi*** *ati Mallu,*
Tab’ida zülmü kina sari γulu (500).

Tahlil natijasida shuni kuzatish mumkinki, hozir kunga kelib mazkur istiloh ma’no kengayish hodisasiga uchragan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Sab’ai sayyor” dostonidagi davlat idoralari va mansab-martaba bildiruvchi leksika XV asr eski o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi tizimli xususiyatiga ega eganligini ko‘rsatadi. Asarda uchraydigan istilohlar shunchaki atash vazifasini bajarmay, balki qay’iy iyerarxik tizimga ega bo‘lgan davlatchilik madaniyatini ham aks ettiradi. Dostondagi majoziy qissalar ortida real tarixiy davr – Temuriylar saltanati, xususan, Husayn Boyqaro davri davlat ma’muriyatidagi muhiti aks etgan. Adib poraxo‘rlik va adolatsizlikni mansabdor obrazlar orqali keskin tanqid ostiga olgan. Shu bois, asarning boshqaruv leksikasini o‘rganish nafaqat adabiy manba, balki sharqona siyosatshunoslik va milliy boshqaruv an’analari tarixini xolis baholashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. X jildlik, VII jild. –Toshkent: G’afur G’ulom, 2013. – 275-664 b.
2. Abdushukurov B. “Qisasi Rabg‘uziy” leksikasi. Filol. fan. d-ri (DSc). … diss. – Toshkent, 2017. – 259 b.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 173-174.
4. Dadaboev H. Alisher Navoiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlarning eski turkiy obidalar leksikasiga munosabati /Alisher Navoiy tavalludinining 550 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya tezislari. –Toshkent: Fan, 1991. –B. 68.

5. Dadabaev X. Voennaya leksika v starouzbekskom yazыke. Avtoref. dis. kand. filol. nauk. – Tashkent, 1981. – 21 s.
6. Yodgorov H. O‘zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi. Filol. fan. nomz. dis. … avtoref. –Toshkent, 1996. –B. 26.
7. Isoqova Z. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2010. – 166 b.
8. Maxmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida o‘zlashmalar. Filol. fan. d-ri (DSc). … diss. – Toshkent, 2022. – 309 b.
9. Mo‘minova O. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. – Toshkent, 2009. – 128 b.
10. Primov A. Sharafuddin ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari leksikasi. Filol fan. d-ri (DSc). … diss. –Toshkent, 2024. – 231 b.
11. Sindorov L. “Hibatul haqoyiq” leksikasi. Filol. fan. b. falsafa dok (PhD). diss... – Jizzax, 2021. – 282 b.
12. Xolmanova Z. “Boburnoma” – til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2021. –B. 215.
13. Xolmanova Z. “Boburnoma”ning leksik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc). … diss. – Toshkent, 2009. – 368 b.
14. O‘rozboev A. Ogahiyning tarixiy asarlari lekikasi. Filol. fan. d-ri (DSc). … diss. – Toshkent, 2018. – 251 b.
15. Xo‘janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filol. fan. b. falsafa dok (PhD). diss... –Toshkent, 2022. – 155 b.

Shartli qisqartmalar

ANAL – Fozilov E. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent, I. 2013. -2006 b.

ANATIL – Alisher navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. g‘Toshkent, I-IV. 1983-1985; I-1983, 646 b.; II-983, 642 b.; III-1984, 622 b.; IV -1985, 636.

ATG – Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I jild. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. –Toshkent, 1997.

ARS – Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar. –M: Russkiy yazыk, 1976. -595 b.

DLT – Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. –Toshkent: Fan, 1960-1963. T. I. 1960. -499 b.; T. II. 1961. -427b.; T. III. 1963. -461 b.

DTS – Drevnetyurkskiy slovar. –L.: Nauka, 1969. -646 b.

ISTQIL – Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug’ati. –Toshkent: Sahhof, 2021. – 302 b.

TjRS – Tadjiksko-russkiy slovar. –M.: Gosudarstvennoeizdatelstvo inostrannыx m natsionalnыy slovarey, 1954. -789 s.

O‘TEL – Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. -599 b.; O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arabcha birliklar va ularning hosilalari). –Toshkent: Universitet, 2000. -599 b.; O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (forschag‘tojikcha birliklar va ularning hosilalari). –Toshkent: Universitet, 2009. -282 b.

O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-VI. –Toshkent: G’afur G’ulom, 2022-2023. 2022-2023. T. I-2023, – 964 b.; T. II-2023, – 1036 b.; T. III- 2022, – 844 b.; T. IV-2023, – 824 b.; T. V-2022, – 720 b.; T. VI-2023, – 864 b.